"Uzbekistan Airways" (mijoz) AJ o'zining 2020-yildagi moliyaviy-xo'jalik faoliyatini audit o'tkazish uchun tanlov e'lon qiladi.

Tanlovda O'zbekiston Respublikasining quyidagi talablarga javob beruvchi auditorlik kompaniyalari ishtirok etishi mumkin:

1. 10 yildan kam bo'lmagan vaqt mobaynida auditorlik sohasida faoliyatni amalga oshirib kelayotgan;

2. Shtatida xalqaro malakali (ACCA DipIFR, ACCA, CPA, CIPA) auditorlarga ega;

3. Shtatida sertifikatlangan soliq konsultantlariga ega.

Tijorat takliflari quyidagi hujjatlar bilan 6-iyulga qadar(jumladam 6-iyul kuni ham) qabul qilinadi:

- korxona davlat organida ro'yxatdan o'tkazilganligini tasdiqlovchi hujjatlar nusxalari;

- tanlovda belgilangan ish turlari uchun tegishli litsenziyalar nusxalari;

- kompaniya xodimlarining malakasi to'g'risida ma'lumot (sertifikatlar nusxalari);

- kompaniya haqida umumiy ma'lumot hamda uning faoliyatini nomoyon etuvchi boshqa ma'lumotlar;

- tijorat taklifining qiymati, hisob-kitob tartibi;

- auditni o'tkazish shartlari;

- xizmat uchun chegirmalar va ularni taqdim etish shartlari. «Uzbekistan Airways» AJning tanlov ishtirokchilari tomonidan taqdim etiladigan xizmatlar yuzasidan talablari:

- birlamchi hujjatlarni o'rganish;

- buxgalteriya hujjatlarini tuzish va rasmiylashtirish umumiy tartibini baholash;

- hisobot natijalariga qiziqish bildirgan foydalanuvchilar tomonidan qaror qabul qilinishiga muhim ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hisobotda ko’rsatilgan ma'lumotlarning bunday turdagi hujjatlar uchun qonunchilik shakllariga muvofiqligini

teshirish;

- kompaniya tomonidan qabul qilingan hisob siyosatining maqsadga muvofiqligini baholash;

- moliyaviy va iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda buxgalteriya hisobi to'g'risidagi amaldagi qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qilish;

- korxona operatsiyalarida o'tgan voqealar to'g'risidagi ma'lumotlarning to'liqligi va ishonchliligini nazorat qilish;

- ular to'g'risida ob'ektiv fikr bildirilgan holda auditorlik xulosasini taqdim etish.

Aviakompaniya zarur hollarda qo'shimcha ma'lumotlarni talab qilish huquqiga ega.

Ma'lumot uchun telefonlar:

(998-71) 140-45-85, 140-45-77,

e-mail: Shuhrat.Bahramov@uzairways.com, nusxasi: Yekaterina.Kulakova@uzairways.com



Download PDF